

## **“Omadli yuzlik” AKSIYASI QOIDALARI VA SHARTLARI**

### **1. UMUMIY QOIDALAR**

- 1.1. Aksiya "PRIME MEDIA SOLUTION" MChJ, T.M. FINMEDIA, (bundan keyin - Tashkilotchi) tomonidan tashkil etiladi.
- 1.2. **“Omadli yuzlik”** aksiyasi- O’zbekiston Respublikasi hududida Tashkilotchi tomonidan o’tkaziladigan aksiyadir ( bundan buyon- Aksiya).
- 1.3. Aksiyada **CLICK** to’lov tizimida ro’yxatdan o’tgan **“Odnoklassniki”** ijtimoiy tarmog’ining Foydalanuvchilari qatnashadi.
- 1.4. O’zbekiston Respublikasining rezidenti bo’lмаган abonentlar, Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, Tashkilotchining dilerlari va ularning yaqin qarindoshlari (turmush o’rtoqlari, farzandlari, ota-onalari, aka-uka va opa- singillari) ushbu Aksiyada qatnashmaydilar. Bu shaxslar sovringa da’vogar bo’la olmaydilar.
- 1.5. Aksiya muddati – aksiya 2019 yil 21 yanvar kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 17 fevral soat 23:59:59’gacha o’tkaziladi. Aksiya 4 davrga bo’linadi: 1-chi davr – 2019 yil 21 yanvar kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 27 yanvar soat 23:59:59 gacha; 2-chi davr - 2019 yil 28 yanvar kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 03 fevral soat 23:59:59 gacha; 3-chi davr- 2019 yil 04 fevral kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 10 fevral soat 23:59:59 gacha; 4-chi davr- 2019 yil 11 fevral kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 17 fevral soat 23:59:59 gacha .
- 1.6. Sovrin faqat CLICK to’lov tizimi orqali to’lovni amalga oshirgan abonent raqamining egasiga, ya’ni pasport ma’lumotlari bo’yicha ushbu abonent raqamining egasi bo’lgan shaxsga beriladi.
- 1.7. Sovrinni olish uchun Ishtirokchi 18 yoshga to’lgan O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lishi kerak.
- 1.8. Sovrinning tashqi ko’rinishi reklama materiallarida ishlatilgan tasvirlardan farq qilishi mumkin.

### **2. AKSIYANI O’TKAZISH TARTIBI**

- 2.1. Aksiyada, uning o’tkazilishi davomida **CLICK** to’lov tizimi orqali o’zining akkaunt balansini **100 OK** va undan ortiqqa to’ldirgan **“Odnoklassniki”** ijtimoiy tarmog’ining Foydalanuvchilari qatnashadi.
- 2.2. Aksiya davomida bitta Foydalanuvchi faqat bitta sovrinni qo’lga kiritishi mumkin.

2.3. Aksianing bir hisobot davri davomida olingan imkoniyat keyingi hisobot davriga o'tkazilmaydi.

2.2. Aksiya g'oliblarini aniqlash:

2.2.1. Aksiya qoidalariga muvofiq, amalga oshirilgan Abonent/ Foydalanuvchilar to'lovlari tranzaksiyalarining raqamlari ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va ularga avtomatik tarzda idenbtifikasiya raqami (ID) beriladi.

2.2.2. Har bir hisobot davri natijalariga ko'ra, G'olibning ID raqami [www.random.org](http://www.random.org) internet xizmati yordamida komissiya ishtirokida va videoyozuvni amalga oshirish bilan belgilanadi.

2.2.3. Sovrinlar 2.2.3-bandda ko'rsatilgan tartibda o'ynaladi.

2.2.4. Quyidagi sovrin fondi qo'llaniladi:

Hisobot davri	O'yin sanasi	Miqdori	Sovrin
2019 yil 21 yanvar kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 27 yanvar soat 23:59:59 gacha	28 yanvar 2019 yil	1	REDMI 6A 2/16 smartfoni
2019 yil 28 yanvar kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 03 fevral soat 23:59:59 gacha;	4 fevral 2019 yil	1	REDMI 6A 2/16 smartfoni
2019 yil 04 fevral kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 10 fevral soat 23:59:59 gacha	11 fevral 2019 yil	1	REDMI 6A 2/16 smartfoni
2019 yil 11 fevral kuni soat 00:00:00 dan 2019 yil 17 fevral soat 23:59:59 gacha .	18 fevral 2019 yil	1	REDMI 6A 2/16 smartfoni

### **3. SOVRINLARNI TOPSHIRISH TARTIBI**

3.1. Sovrinlarni olish uchun g'oliblar pasport bilan shaxsan kelishlari yoki notarial tasdiqlangan ishonchnomasi bo'lgan shaxslarni yuborishlari kerak (sovrinni olish uchun ishonchnomani ko'rsatish kerak).

3.2. Sovrinni olish uchun Aksiya G'oliblari quyidagi hujjatlarni Tashkilotchiga taqdim etadi:

3.2.1. Ro'yxatga olingan doimiy yashash joyi ko'rsatilgan pasport nusxasini;

3.2.2. Soliq inspeksiyasidan olingan STIR nusxasi.

3.3. G'olibni identifikasiyasi uchun Tashkilotchi quydagilarni talab qilish huquqiga ega.

3.3.1. Aksiya G'olibidan to'lovlar amalga oshirilib, g'olib bo'lib chiqqan abonent raqamiga tegishli Mobil aloqa operatori bilan tuzgan shartnoma nusxasini.

3.3.2. Tashkilotchi tomonidan mas'ul shaxs huzurida G'olibdan g'olib bo'lib chiqqan logindan foydalanib "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmog'idagi shaxsiy akkauntga kirishi talab etilishi mumkin.

3.4. G'olib tomonidan ushbu shartlar bajarilmagan va kerakli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, sovrinlar Tashkilotchida qoladi va Tashkilotchi ularni G'olibga bermaslik huquqiga ega bo'ladi.

3.5. Taqdimot g'oliblari ushbu Aksiyadagi sovrin (lar) ning olinishi munosabati bilan yuzaga keladigan barcha soliq to'lovlarini to'lashni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligidagi belgilangan boshqa harakatlarni bajarish majburiyatini oladi. Shu munosabat bilan, Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, G'olibning soliq agenti sifatida faoliyat olib boradi, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda jismoni shaxslardan olinadigan daromad soligi summasini qonunchilikda belgilangan 12% stavka bo'yicha hisoblab chiqadi va tegishli soliqni G'olib nomidan byudjetga o'tkazadi.

3.6. Aksiya Ishtirokchilariga ular taqdim etgan tasdiqlovchi hujjatlar asosida (mobil telefon raqami, telefon raqami egasini tasdiqlovchi hujjat, STIR nusxasi) sovrinning topshirilishi va ular tomonidan qabul qilish va topshirish aktiga shaxsiy imzosining qo'yilishi bilan, Tashkilotchi majburiyatları to'liq va tegishli ravishda bajarilgan hisoblanadi.

3.7. Sovrirlarni topshirish muddati – Aksiya tugaganidan keyin, Aksiya G'oliblari tomonidan sovrinni olish uchun arizalarni topshirishlari mumkin bo'lgan **30 kundan** iborat muddatdir.

3.8. Sovrin naqd pul ko'rinishida berilmaydi.

3.9. Agar Tashkilotchining nazorati ostida bo'limgan holatlar tufayli G'olibga aylangan Ishtirokchi sovrinni topshirish muddati tugaguniga qadar sovrinni olish uchun Tashkilotchiga taalluqli murojaat qilmagan bo'lsa, ushbu holat Ishtirokchining sovrindan voz kechishi sifatida qabul qilinadi.

3.10. Agar sovrirlarni topshirish davrining tugaganidan so'ng taqsimlanmagan sovrinlar qolgan bo'lsa, Tashkilotchi ushbu sovrirlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'limgan har qanday usul bilan boshqaradi.

3.11. Aksiyaning sovrinlar jamg'armasi Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllanadi.

3.12. Aksiya sovrinlari sifati bilan bog'liq e'tirozlar to'g'ridan- to'gri Tashkilotchiga bildirilishi kerak. Sovrinlarning butunligi va funksional muvofiqligi Ishtirokchilar tomonidan sovrinni qabul qilib olishi paytida tekshiriladi. Sovrinning Aksiya G'olibiga topshirilganidan keyin, unda paydo bo'lgan har qanday nosozliklar uchun Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi.

3.13. Aksiya sovrinlarning tashqi ko'rinishi Tashkilotchining television roliklari, reklama materiallari va saytida ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

#### **4. NOMAQBUL HOLATLAR.**

4.1. Quyidagi holatlarda Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi:

4.1.1. Tomonlarning irodasi va faoliyati bilan bog'liq bo'limgan tabiiy ofatlar (zilzilalar, ko'chiklar, to'fonlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatlar (urush, blokada, import va eksportning taqiqanishi va boshqalar) yuzasidan kelib chiqadigan holatlarda.

4.1.2. Tomonlarning istaklari (o'g'irlik, zo'ravonlik, ommaviy tartibsizliklar va boshqalar; iqtisodiy faoliyat to'xtatilganda va boshqalar) bilan bog'liq bo'limgan hollarda.

#### **5. ALOHIDA SHARTLAR**

5.1. Aksiya Ishtirokchisi sifatida Tashkilotchining ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan, ammo [www.finmedia.uz](http://www.finmedia.uz) saytida joylashtirilgan mazkur Qoidalarga rozi bo'limgan ishtirokchi Aksiyada qatnashishdan bosh tortish huquqiga ega.

5.2. Tashkilotchining yozma arizasiga binoan, Aksiya G'olibni Sovrinni olish bilan bog'liq barcha ochiq va yopiq bo'lgan xarajatlarni, jumladan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan soliq to'lovlarini, pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun bank komissiyalari va boshqa to'lovlarini o'z zimmasiga oladi.

5.3. Aksiya G'olibni uning g'olibligi bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqiga ega emas.

5.4. Aksiyada qatnashish "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmog'i Foydalanuvchilarining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqqanligini va to'liq roziligin anglatadi.

5.5. Aksiya G'oliblari sifatida qabul qilingan Ishtirokchilar, ularning alohida roziligesiz, avtomatik tarzda Tashkilotchiga va/yoki uning vakiliga o'z ismi, familiyasi, otasining ismini, fotosuratini, mobil telefon raqamini, Aksiyaga tegishli reklama intervyuda, shuningdek, radio, televideniye va boshqa axborotni tarqatish vositalarida traqatish, qo'llanish muddati, tarqatish hududi cheklanmagan va buning uchun qo'shimcha to'lovlar to'lanmaydigan holda turli foto- va videolarni reklama maqsadida suratga olish huquqini taqdim etgan bo'ladilar. Shu bilan birga, reklama tarqatuvchisi bunday

tarqatishni to'xtatish talabi bilan yozma ravishda murojaat qilgan shaxsnинг murojaatnomasiga muvofiq, bunday talab kelib tushgan kundan e'tiboran 10 kun ichida reklama tarqatishni to'xtatishi kerak.

5.6. Tashkilotchi, mazkur Qoidalarda ko'zda tutilgan masalalardan tashqari, Aksiya Ishtirokchilari bilan boshqa yozishmalar yoki boshqa muloqot turlariga kirmaslikka haqlidir.

5.7. Tashkilotchi, mazkur Qoidalarda Sovrinni olish uchun ko'zda tutilgan ma'lumotlarni noto'g'ri bo'lishi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar emas.

5.8. Foydalanuvchining Qoidalari bilan o'z vaqtida tanishib chiqmaganligi, uning tomonidan mazkur Qoidalarda Sovrinni olish uchun belgilangan hujjatlarni taqdim etish talablarining va muddatlarining buzilishi uchun asosli sabab bo'lmaydi.

5.9. Tashkilotchi mazkur Qoidalarni buzgan, jumladan, Sovrinni olish uchun kerakli hujjatlarni o'z vaqtida topsh, shuningdek, umuman topshirmagan G'oliblarga Aksiya Sovrinlarini topshirishdan voz kechish huquqiga ega.

5.10. Tashkilotchi telefon aloqasining sifati, uyali aloqa operatorlari faoliyati, Internet aloqasi, shuningdek, Internet-provayderlarning ish sifati va ularning Ishtirokchilarining uskunalari va dasturlari bilan ishlash qobiliyati, shuningdek Tashkilotchi nazorati ostida bo'limgan boshqa holatlar va ular bilan bog'liq oqibatlar uchun javob bermaydi.

5.11. Tashkilotchi Foydalanuvchi/ Ishtirokchi/ Aksiya G'olibining hatolaridan kelib chiqqan oqibatlar, shu jumladan (boshqa oqibatlar bilan bir qatorda) yetkazilgan zararlar uchun javobgar hisoblanmaydi.

5.12. Foydalanuvchilar tomonidan Aksiyada qatnashish Qoidalaring bajarilishi jarayonida Tashkilotchi yoki uning vakillari Aksiyani o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan vositalarni, jumladan, taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni Aksiya Sovrinlarini topshirish , shuningdek, Ishtirokchilar bilan shaxsiy muloqotda bo'lish maqsadlarida qo'llanish huquqiga ega bo'ladilar. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari faqat ushbu Aksiyaning o'tkazilishi munosabati bilan Tashkilotchi tomonidan ishlataladi va ushbu Aksiya bilan bog'liq bo'limgan uchinchi shaxslarga berilmaydi. Aytib o'tilgan rozilik Ishtirokchi tomonidan istalgan vaqtda Tashkilotchi manziliga pochta xati orqali yozma xabarnoma yuborish yo'li bilan, bekor qilinishi mumkin. Tashkilotchi yoki uning vakillari Ishtirokchilarning Aksiya davomida taqdim etgan barcha shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan maxfiylik rejimini qo'llaydi va ularning havfsizligini ta'minlaydi.

5.13. Aksiyada qatnashish Ishtirokchi tomonidan ham Aksiya jarayonida, ham undan keyin uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, SMS-, reklama va Tashkilotchidan yozishmalarni qabul qilishga roziliginibildiradi.

- 5.14. Aksianing barcha Ishtirokchilari Aksiyada qatnashish bilan bog'liq barcha xarajatlarni (jumladan, va bu bilan cheklanmagan holda, Internet aloqasi a mobil aloqa, shuningdek, transport bilan bog'liq harajatlarni) o'z zimmasiga oladi.
- 5.15. Tashkilotchi Aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotni o'zining rasmiy [www.finmedia.uz](http://www.finmedia.uz) saytida joylashtirish huquqini saqlab qoladi.
- 5.16. Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni inobatga olgan holda, barcha arizalarni bekor qilishi va ushbu Qoidalarga zid ishlarni qilgan har qanday shaxsga, ushbu qoidalarni buzishda yoki buzishga harakat qilishni taqiqlashi mumkin. barcha arizalarni bekor qilishi va ushbu Qoidalarga zid ishlarni qilgan har qanday shaxsga, ushbu qoidalarni buzishda yoki buzishga harakat qilishni taqiqlashi va ushbu Qoidalar bilan bog'liq buzg'unchilikka olib kelishi yoki bu Aksiyada qatnashayotgan yoki uning bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxsni bezovta qilishi, uni haqoratlash, unga tahdid solishi uchun Aksiyadan chetlatilishi mumkin.
- 5.17. Tashkilotchi Aksiyada firibgarlikning oldini olish uchun istalgan vaqtda qo'shimcha texnik cheklashlarni joriy etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar Aksiya Ishtirokchisining xatti-harakatlarida biron-bir nomaqbulliklar aniqlansa, u Aksiyadan chetlatilishi mumkin. Tashkilotchi o'zining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni hisobga olgan holda Ishtirokchi xatti-harakatlarining muqobilligini mustaqil ravishda baholaydi.
- 5.18. Ushbu Qoidalarda ko'zda tutilmagan barcha hollarda Tashkilotchi va Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladi.
- 5.19. Tashkilotchi ushbu qoidalarga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va ushbu o'zgarishlar [www.finmedia.uz](http://www.finmedia.uz). rasmiy veb-saytga majburiy e'lon qilinadi.

#### **Tashkilotchi rekvizitlari:**

"PRIME MEDIA SOLUTION" MChJ

Yuridik manzili: 100000, Toshkent sh., Mustaqillik pr., 59A

Telefon: +99871 237-4529, +99899 844-4529

E-mail: [info@finmedia.uz](mailto:info@finmedia.uz)

Rasmiy sayt: [www.finmedia.uz](http://www.finmedia.uz)